BASKETBOL TRENERLARI PEDAGOGIK FAOLIYATINI RAQAMLI MONITORING VA REFLEKSIV TAHLIL ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Norkulov Doniyorbek Rahmiddinovich
Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali “Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasi professori, p.f.b.f.d. (PhD)
Telefon: +99894 8900969_

Annotatsiya. *Maqolada basketbol trenerlarining pedagogik faoliyatini raqamli monitoring va refleksiv tahlilni uyg‘unlashtirgan TF–Y8 metodikasi asosida takomillashtirish masalasi yoritilgan. Metodika “tahlil – reja – qo‘llash – nazorat – yangilash” siklidan iborat. U trenerning refleksiv kundaligi, videotahlil va minimal amaliy farq (MAF) asosidagi maqsad qo‘yishga tayanadi. Bir yillik pedagogik tajriba-sinov natijasida tajriba guruhi sportchilarining jismoniy va texnik ko‘rsatkichlarida statistik ishonchli o‘sish qayd etildi (p<0,05).*

Kalit so‘zlar: *basketbol treneri, pedagogik faoliyat, refleksiv tahlil, raqamli monitoring, videotahlil, TF–Y8, kompetensiya.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport ta’limini modernizatsiya qilish trenerdan faqat mashg‘ulot o‘tkazuvchi emas, balki o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalovchi, uni ma’lumotlar asosida boshqaruvchi va o‘z faoliyatini muntazam tahlil qiluvchi pedagog bo‘lishni talab etmoqda. Xalqaro sport trenerligi doiraviy modelida “o‘rganish va mulohaza yuritish” trenerning oltita asosiy funksiyasidan biri sifatida ajratilgan [5]. J. Côté va W. Gilbert esa trener samaradorligini kasbiy, shaxslararo va shaxsiy (intrapersonal) bilimlar birligi bilan bog‘laydi [2].

Biroq amaliyotda trenerlik faoliyati ko‘pincha intuitiv tajribaga tayanadi. Respublikaning to‘rt hududida o‘tkazilgan dastlabki so‘rovnoma (n=28) natijasida trenerlarning faqat 49 foizi refleksiv tahlil metodikasi haqida eshitgani, 10–15 foizi uni qo‘llashga o‘zini tayyor deb bilishi aniqlandi. Raqamli vositalar bo‘yicha so‘rovnomada (n=51) videotahlildan doimiy foydalanuvchilar 11,8 foizni, umuman foydalanmaydiganlar esa 39,2 foizni tashkil etdi. Bu holat raqamli monitoring va refleksiv tahlilni yagona pedagogik texnologiyaga birlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi basketbol trenerlari pedagogik faoliyatini raqamli monitoring va refleksiv tahlil asosida takomillashtiruvchi TF–Y8 metodikasining samaradorligini tajribada asoslashdan iborat.

Metodlar. TF–Y8 metodikasi D. Schönning refleksiv amaliyot nazariyasi [8], D. Kolbning tajriba orqali o‘rganish sikli [6] va V.P. Bespalkoning pedagogik tizim haqidagi g‘oyalariga [1] asoslanadi. Metodika sakkiz bosqichdan iborat: boshlang‘ich diagnostika (TB); minimal amaliy farq (MAF) asosida maqsad qo‘yish; mikroreja tuzish; mashg‘ulotda qo‘llash; refleksiv qaydnoma yuritish; oraliq monitoring; tahlil va tuzatish; yakuniy baholash (TO) va yangilash. MAF tushunchasi W.G. Hopkinsning “eng kichik ahamiyatli o‘zgarish” konsepsiyasiga tayanadi [4]. U trenerga haqiqiy o‘sishni tasodifiy tebranishdan ajratish imkonini beradi.

Har bir mashg‘ulotdan keyin trener uch savolga qisqa yozma javob beradi: “Nima samarali bo‘ldi?”, “Nima samarali bo‘lmadi va nima uchun?”, “Keyingi mashg‘ulotda nimani o‘zgartirish kerak?”. Haftalik tahlilda ushbu qaydlar videotahlil va test ma’lumotlari ($\bar{X}$, σ, V%) bilan solishtiriladi. Shu asosda keyingi mikrotsikl rejasiga tuzatish kiritiladi. Bu yondashuv W. Gilbert va P. Trudel ta’riflagan tajriba orqali refleksiv o‘rganishni [3] basketbol trenerining kundalik ishiga ko‘chiradi.

Pedagogik tajriba-sinov Farg‘ona va Namangan viloyatlaridagi sport maktablarida bir yil davomida o‘tkazildi. Unda 11 nafar trener (tajriba guruhi – 5, nazorat guruhi – 6) va ularning U14

(11–14 yosh) basketbolchilari ishtirok etdi. Nazorat guruhi amaldagi dastur asosida, tajriba guruhi TF–Y8 metodikasi asosida shug‘ullandi. Natijalar Styudentning t-mezoni bilan baholandi.

Natijalar. Tajriba-sinov natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Nazorat (NG) va tajriba (TG) guruhlari basketbolchilarining boshlang‘ich (TB) va yakuniy (TO) ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	NG (TB)	NG (TO)	TG (TB)	TG (TO)	p (TG)
Vertikal sakrash, sm	28,7±5,6	29,2±5,6	28,9±5,3	33,8±5,0	<0,05
Jarima to‘pini tashlash aniqligi, %	59,0±11,0	60,5±11,0	59,2±10,8	68,3±9,5	<0,05
3 ochkolik tashlash aniqligi, %	31,9±9,6	32,5±9,5	32,1±9,3	38,4±8,5	<0,05
20 m ga to‘p olib yurish, s	5,30±0,53	5,25±0,52	5,30±0,51	4,95±0,47	<0,05

Tajriba guruhida vertikal sakrash 28,9 sm dan 33,8 sm ga (+17%), jarima to‘pini tashlash aniqligi 59,2% dan 68,3% ga, 3 ochkolik tashlash aniqligi 32,1% dan 38,4% ga oshdi. 20 m masofani to‘p bilan bosib o‘tish vaqti esa 5,30 s dan 4,95 s gacha qisqardi (barcha ko‘rsatkichlarda $p<0,05$). Nazorat guruhidagi o‘zgarishlar statistik ishonchsiz bo‘ldi ($p>0,05$). Tajriba guruhida barcha mezonlar bo‘yicha variatsiya koeffitsienti pasaydi. Bu natijalar tasodifiy emas, balki tizimli ravishda barqarorlashganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar trener faoliyatidagi o‘zgarishlarning bevosita samarasi sifatida talqin etiladi. Tajriba guruhi trenerlari har bir mashg‘ulotdan so‘ng refleksiv qaydnoma yuritib, videotahlil va raqamli o‘lchov natijalariga tayangan holda mashq tanlash, yuklamani dozalash va xatolarni tuzatish bo‘yicha qarorlarini muntazam tuzatib bordilar. Pedagogik nuqtai nazardan TF–Y8 trenerda to‘rt yo‘nalishdagi kompetentlikni rivojlantiradi:

– refleksiv kompetentlik – o‘z qarorlarining natijasini tahlil qilish;

– analitik kompetentlik – statistik ko‘rsatkichlarni talqin qilish;

– raqamli-diagnostik kompetentlik – videotahlil va monitoring vositalaridan foydalanish;

– adaptiv boshqaruv kompetentligi – natija MAF chegarasiga yetmaganda rejani o‘z vaqtida qayta qurish.

Shu bilan birga, metodika sportchini ham o‘z rivojlanishining faol ishtirokchisiga aylantiradi: sportchi o‘z natijalari dinamikasini ko‘radi va trener bilan birgalikda tahlil qiladi. Bu esa mas’uliyat va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi tarbiyaviy sifatlarni shakllantiradi. Mazkur jihat sport tayyorgarligi va pedagogik jarayon integratsiyasining amaliy ifodasidir. Natijalar V.N. Platonovning sport tayyorgarligini tizimli boshqarish to‘g‘risidagi qarashlariga [7] ham mos keladi.

Xulosa. Raqamli monitoring va refleksiv tahlilni birlashtirgan TF–Y8 metodikasi trener pedagogik faoliyatini intuitiv tajribadan ma’lumotlarga asoslangan, o‘lchanadigan va muntazam yangilanadigan tizimga aylantiradi. Bir yillik tajriba-sinovda metodika basketbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini ishonchli oshirdi. Metodikani trenerlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga alohida modul sifatida kiritish, sport maktablarida esa mashg‘ulotlarni videotasvirga olish va natijalarni raqamli jadvallarda yuritish uchun sharoit yaratish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy tekhnologii. – M.: Pedagogika, 1989. – 192 s.
2. Côté J., Gilbert W. An integrative definition of coaching effectiveness and expertise // International Journal of Sports Science & Coaching. – 2009. – Vol. 4, № 3. – P. 307–323.
3. Gilbert W.D., Trudel P. Learning to coach through experience: Reflection in model youth sport coaches // Journal of Teaching in Physical Education. – 2001. – Vol. 21, № 1. – P. 16–34.

4. Hopkins W.G. How to interpret changes in an athletic performance test // Sportscience. – 2004. – Vol. 8. – P. 1–7.